

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI




SHARQ ADABIYOTI JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA  
(FORS)

FANINING O'QUV DASTURI


<b>Bilim sohasi:</b>	200 000-San'at va gumanitar fanlar
<b>Ta'lim sohasi:</b>	230 000-Tillar
<b>Mutaxassislik:</b>	70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo'yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi  
boshlig'i:

 Nuriddinov N. N.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi SAJAK1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuqlama (soat)
	Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (fors)	48	72	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> magistrarga asl manbalar bilan ishlash, ularga fors adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri masalasini o'rgatish, asar talqini va tahlili, tahlil tayanadigan tamoyillarni, tahlil jarayonida estetik asoslar ustuvorligini, tahlil yo'nalish va bosqichlarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- forsiy adabiyot namunalarning turli jahon tillari, g'arb tillariga tarjimai, dunyo olimlarining forsiy adabiyot bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlarini talabalarga yetkazish;</li> <li>- forsiy badiiy matnlarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, muallif obrazini idrok etish;</li> <li>- muallifni tushunish, adabiy asarning butun qirralarini anglab yetishni o'rgatish</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi The Ohio State University (207 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202241%20SP17.pdf">https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202241%20SP17.pdf</a></p>			

3.	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Sharq va G'arb adabiy aloqalari</b></p> <p>Sharq va g'arb adabiyotida adabiy asarlarining asosiy farqlari haqida ma'lumot beradi. Bu jarayonda qiyosiy va qarama-qarshi tahlil usullaridan foydalanilib, asosan, adabiyot sohasida yetarlicha farq borligiga ishonch hosil qilish</p> <p><b>2-mavzu. Yevropa mamlakatlari adabiyotiga fors adabiyotining ta'siri</b></p> <p>Hamisha afsonaviy bo'lib kelgan Sharq o'z adabiyoti va san'ati bilan ham Yevropa xalqlarini maftun etganligi sir emas. Sharq adabiyotining daholari – Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Xayyom, Nizomiy, Attor, Rumi, Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Bobur va Bedilning insonparvar va hayotsevarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan adabiy-ilmiiy merosi G'arb shoir va yozuvchilarini ilhomlantirib kelgan.</p>
----	---

### 3-mavzu. Rudakiy poetikasi

Somoniylar davlatining ko'zga ko'ringan davlat arbobi, Nasr II ibn Ahmadning yaqin do'sti Abufazl Bal'amiy Rudakiy haqida "U faqat mashhur shoir bo'libgina qolmay, balki o'z davrining yetuk olimi ham edi", deb baho bergan.

### 4-mavzu. Firdavsiyning "Shohnoma"si - jahon adabiyoti durdonasi

Firdavsiy keng qamrovli va chuqur ilm egasi bo'lib yetishdi. Shu bois uni «hakim», «donishmand» deb ulug'laganlar. Shoir ijodining ayni gullagan davrida G'azna shahrida (hozirgi Afg'oniston hududi) — turk sultoni Mahmud G'aznaviy saroyida yashab, ijod qildi.

### 5-mavzu. G'arb adabiy doiralari Xayyom ijodining ta'siri

Umar Xayyom Nishopur, Balx, Samarqand, Buxoro shaharlarida o'qiydi. Rivoyatlarga qaraganda Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk unga Nishopur hokimligini taklif qiladi. Lekin Umar Xayyom bunga rozi bo'lmaydi. U 1074 yildan boshlab Isfaxon rasadxonasi ishlariga rahbarlik qilib, matematika, astronomiya sohasida tadqiqotlar olib boradi. Uning matematika, falakiyotshunoslik, falsafaga oid bir qancha asarlari va kashfiyotlari ma'lum.

### 6-mavzu. Nizomiy Ganjaviy she'riyati va uning jahon adabiyoti rivojidagi o'rni

Nizomiyning «Xamsa»si uning nomini butun jahonga mashhur qildi. O'ttiz ming baytdan tashkil topgan besh dostonni Nizomiy-Ganjaviy qisqa muddat ichida (1179—1200 yillar orasida) yaratdi. Uning «Mahzan-ul-asror», «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» va «Iskandarnoma» dostonlari mavjud.

### 7-mavzu. Sufiy shoir Farididdin Attor va jahon adabiyoti

Shoiming she'riy devoni, «Muxtorнома» ruboiylar to'plami, «Mantiq ut-tayr», «Xusravnoma», «Asornoma», «Ilohiynoma», «Musibatnoma», «Bulbulnoma», «Usturnoma», «Javhar uz-zot» dostonlari va «Tazkirat ul-avliyo» tazkisasi ayniqsa mashhur. Attor asarlari, asosan, tasavvuf haqiqatlari bayoniga bag'ishlangan.

### 8-mavzu. Sa'diy Sheroziy va G'arb adabiyoti

Sa'diyni g'azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ham ulug'lashadi, chunki ungacha forsiy sheriyaatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit'a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamodiddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko'plab g'azallar yozgan bo'lsalar-da, ular qasida va qit'a xarakteriga ega bo'lib, o'zaro mustaqil alohida baytlardan g'azal yaratish an'anasini Sa'diy boshlab berdi. U g'azalchilikdagi o'zigacha olib borilgan izlanish va tajribalarni rivojlantirib, g'azalni takomilga yetkazdi

### 9-mavzu. "Guliston" va "Bo'ston" asarlarining o'rganilishi va tarjima masalalari

«Guliston» sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob - podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob — darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob — qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob — ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob — qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob - tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob — suhbat odobi zikrida.

### 10-mavzu. Rumiyl falsafasi va Jahon adabiyoti

“Mavlaviya” tariqatining asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiyl (Balxiyl) nomi va ma’naviy merosi yevropaliklarga ko’proq tanish. Mashhur rumiyshunos olimalar Annemarie Shimmel ta’biri bilan aytganda, “G’arbda islom oriflaridan hech kim Jaloliddin Rumiyl darajasida tanilgan emas». Xo’sh, ulug’ olmon faylasufi Gegelning dialektika haqidagi nazariyasi uchun sarchashma bo’lib xizmat qilgan Rumiyl tafakkuri Yevropa adabiyoti, falsafasi va umuman, ma’naviy hayotida muhim o’rin tutadi

### 11-mavzu. “Masnaviyi ma’naviy” – jahon adabiyotining shoh asari

“Masnaviy” Jaloliddinning she’riyatdagi hayratga soluvchi iste’dodi kengliklarini “Devoni Shamsi Tabriz”dan ko’ra to’laroq namoyon etadi. Mavlono g’azallari haqiqat, zavq-shavq va jozibaga undovchi she’riyatning eng baland cho’qqilarida parvoz etib, uni irfon mulkining malik ush-shuarosiga aylantirdi. Ammo bu g’azallar shunday bir olamda sayr qiladiki, hayotning oddiy mushohadalari bilan uning orasida ancha masofalar mavjud. G’ayb va ahlidan boshqa hech kim bundan ogoh emas. Gap shundaki, “Masnaviy” birinchi navbatda ana shunday masalalar va tushunchalarga nazar soladi, inson hayotining mazmun-mohiyati hamda turmush tarzi bilan aloqa o’rnatadi”

### 12-mavzu. Hofiz Sheroziyl she’riyatining g’arb tillariga tarjimai masalalari.

Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziyl Eronning Sheroz shahrida tug’ilgan. Lekin butun umri davomida ona shahridan chetga chiqmagan bu «isonafaslik rindi Sheroz» (Navoiyl) o’zining yoniq she’rlari bilan yarim dunyoni egalladi va o’zidan keyingi Sharqu G’arb adabiyotiga katta ta’sir ko’rsatdi. Buyuk nemis shoiri Hyote Hofizni «noyob uslub dahosi», «muqaddas Hofiz» deb ulug’lab, uning ta’sirida «G’arbu Sharq devoni»ni yaratgan bo’lsa, V. Jukovskiy, A. Pushkin, Yu. Lermontov, A. Fet, S. Yesenin kabi rus shoirlari Hofizdan ilhomlanib, «hofizona» ohanglarda she’rlar yozganlar, uning ijodini yuksak baholaganlar.

## III. AMALIY MASHG’ULOTLAR BO’YICHA KO’RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg’ulotlarda magistrantlar “Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (fors)” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariyl bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg’ulotlar mavzulari bo’yicha tayyorgarlik ko’rish jarayonida qo’shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo’shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiyl jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (fors)” fani bo’yicha amaliy mashg’ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq va G’arb adabiyotlarining qiyosiy tahlili
2. G’arb adabiyotida fors motivlari.
3. G’arb adabiyotida fors adabiyotining mavzulari va uslublari.
4. “Shohnoma” - jahon adabiyotining shoh asari
5. Umar Xayyom – “Sharq va G’arb faylasuflari podshohi”

6. Nizomiy Ganjaviy – butun insoniyat shoiri
7. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari
8. Sa’diy Sheroziy ijodining dunyo adabiyotiga ta’siri
9. “Guliston” va “Bo’ston” asarlarining xorijiy tillarga tarjimalari
10. Rumi va Shams Tabriziy jahonshumul siymolari
11. Insoniyat birligi masalasi Rumi va Gyote asarlari misolida
12. Pushkin va Hofiz Sheroziy

#### IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta’limni baholash semester davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMNSga ilova qilinadi.

**“Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (fors)” fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Fors va o‘zbek adabiyoti.
2. Fors va arab adabiyoti
3. Fors va hind adabiyoti.
4. G‘arb adabiyotining shakllanishida fors adabiyotining o‘rni.
5. Fors va rus adabiyoti.
6. Fors va nemis adabiyoti.
7. Fors va fransuz adabiyoti
8. Fors va ingliz adabiyoti.
9. Fors adabiyoti namoyandalari jahon adabiyoti kontekstida.
10. XX asr fors romanchiligi va G‘arb adabiyoti

*Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs loyihasini bajarish;
- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;
- o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni

	<p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• adabiy aloqalar tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari, adabiy aloqalarning vujudga kelish tarixiy sababalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;</li> <li>• adabiy ta'sir masalalarini o'rganishda ilmiy tadqiqotlari bilan muhim o'rin tutgan olimlar haqida bilimga ega bo'lishi;</li> <li>• adabiy ta'sir masalalarining nazariy asoslari haqida ma'lumot berish fors va jahon adabiyotidagi jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; davr mahsuli – san'at asarini o'rganish; adabiy aloqalarda o'z ijodi bilan samarali xissa qo'shgan adiblar ijodini bilishi va ulardan foydalana olish bilan bog'liq ko'nikmalariga ega bo'lishi;</li> <li>• fors so'z san'atida janrlar poetikasiga ta'sir ko'rsatgan adabiyotning g'oyaviy-poetik mazmunini to'g'ri talqin qilish; fors adabiyotida turli ijtimoiy-madaniy sharoitda yaratilgan asarlar mohiyatini jahon adabiyoti kontekstida aniq yoritib bera olish malakalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• rolli o'yinlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni tayyorlash;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar va hokazolar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Йоханн Вольфганг Гёте. Фарбу Шарк девони. Тошкент 2011.</li> <li>2. Фозила Сулаймонова. Шарк ва Фарб. Тошкент 1997.</li> <li>3. Ж.Холмуминов, Ж.Хазраткулов. Форсий адабиётнинг жаҳон адабиётдаги ўрни. Тошкент 2012.</li> <li>4. <a href="https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202241%20SP17.pdf">https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202241%20SP17.pdf</a></li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent.: 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent.: 2023</li> <li>3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan</li> </ol>

*dek*

	<p>ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.</p> <p>6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., 2018</p> <p>7. Xodjaeva R., Qosimova G. Yapon adabiyotida zamonaviy adabiy yo‘nalishlar va oqimlar. O‘quv qo‘llanma. T., 2019. 239 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Scopusdan maqolalar</b></p> <p>2. Esfehani L.S. Cognitive poetics as a literary theory for analyzing Khayyam's poetry // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 32, 2012, Pages 314-320. <a href="https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.01.046">https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.01.046</a>.</p> <p>3. Lacey Okonski, Journal of Pragmatics, Volume 211, 2023, Pages 27-30, ISSN 0378-2166, <a href="https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012">https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012</a>.</p> <p>4. Stefan Blohm, Valentin Wagner, Matthias Schlesewsky, Winfried Menninghaus, Sentence judgments and the grammar of poetry: Linking linguistic structure and poetic effect, Poetics, Volume 69, 2018, Pages 41-56, ISSN 0304-422X. <a href="https://doi.org/10.1016/j.poetic.2018.04.005">https://doi.org/10.1016/j.poetic.2018.04.005</a>.</p> <p>5. Hassan Soodmand Afshar, Mohammad Bagherieh, The Use of Hedging Devices in English and Persian Abstracts of Persian Literature and Civil Engineering MA/MS Theses of Iranian Writers, Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 98, 2014, Pages 1820-1827, ISSN 1877-0428, <a href="https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.03.611">https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.03.611</a>.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.persionbook.org">www.persionbook.org</a></p> <p>2. <a href="http://www.irandoc.ac.ir">www.irandoc.ac.ir</a></p> <p>3. <a href="https://www.hamshahrionline.ir/">https://www.hamshahrionline.ir/</a></p> <p>4. <a href="https://saadifoundation.ir/">https://saadifoundation.ir/</a></p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil “<u>10</u>” <u>06</u> dagi <u>10</u>-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “<u>28</u>” <u>06</u> dagi <u>01</u> - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan /modul uchun mas’ul:</b></p> <p><b>N.K.Kabirova</b> – TDSHU, Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar :</b></p> <p><b>F.A.Nizamova</b> – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, f.f.n.</p> <p><b>D.Z.Muhiddinova</b> – TDSHU, “Arabshunoslik” oliy maktabi dotsenti, DSc</p>